

PHONETIC AND GRAPHIC DIFFERENCES OF ARABIC VERBAL NOUNS BORROWED INTO UZBEK

Mirziyatov Shuhrat Mirgiyazovich

Scientific supervisor: PhD, Associate Professor

Rixsikho'jayeva Zilola

*2nd-year Master's student Higher School of Arabic Studies Tashkent State
University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan Adhamovazilola42@gmail.com*

Abstract: *This article examines the total number of words borrowed from Arabic into the Uzbek language, the differences between the Arabic and Uzbek alphabets, and the specific features that distinguish them. The main focus of the study is on the phonetic changes that have occurred in Arabic masdars after being assimilated into the Uzbek language.*

Keywords: *masdar, borrowing, phonetic phenomenon, phonetic change, vowel, consonant, emphatic sounds, pharyngeal sounds.*

O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN ARABIY MASDARLARNING FONETIK GRAFIK FARQLARI

Mirziyatov Shuhrat Mirgiyazovich

Ilmiy rahbar: phd, dotsent

Rixsixo'jayeva Zilola

*2-kurs magistranti Arabshunoslik oliy maktabi Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti Toshkent, O'zbekiston Adhamovazilola42@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada arab tilidan o'zbek tiliga umumiy qancha so'zlar o'zlashgan, arab va o'zbek tillaridagi harflar bir-biridan qanchalik va nimasi bilan farqlanadi hamda eng asosiysi o'zbek tiliga o'zlashgan arabiy masdarlarning fonetik o'zgarishlari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *masdar, o'zlashma, fonetik hodisa, fonetik o'zgarish, unli, undosh, emfatik, hiqildoq tovushlar.*

ФОНЕТИЧЕСКИЕ И ГРАФИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ АРАБСКИХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ, ЗАИМСТВОВАННЫХ В УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Мирзиятов Шухрат Миргиязович

Научный руководитель: PhD, доцент

Рихсикходжаева Зилола

*Магистрант 2-го курса Высшая школа арабистики Ташкентский
государственный университет востоковедения Ташкент, Узбекистан
Adhamovazilola42@gmail.com*

Аннотация: В данной статье рассматривается общее количество слов, заимствованных из арабского языка в узбекский язык, различия между алфавитами арабского и узбекского языков, а также их отличительные особенности. Основное внимание уделяется фонетическим изменениям, произошедшим в арабских масдарах в процессе их адаптации в узбекском языке.

Ключевые слова: масдар, заимствование, фонетическое явление, фонетическое изменение, гласные, согласные, эмфатические звуки, гортанные звуки.

Kirish. O'zbek tili lug'at tarkibida arab tilidan o'zlashgan so'zlar, xususan, masdar shaklidagi birliklar muhim o'rin tutadi. Ushbu masdarlar o'zbek tiligamoslashish jarayonidatovush tarkibi va talaffuzida fonetik o'zgarishlarga uchragan. Mazkur maqolada arabiy masdarlarning o'zbek tiliga o'zlashuvida yuz bergan asosiy fonetik o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Arabcha o'zlashmalar o'zbek tilining leksik boyligini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, arab tili bilan til aloqalari Islom dini qabul qilinganidan so'ng yanada faollashgan va natijada yuzlab so'zlar turli bosqichlarda o'zbek tiliga kirib kelgan. ⁶²Filologiya fanlari nomzodi Fotih Abdullayev o'zining o'zbek tiliga o'zlashgan arabizmga bag'ishlangan tadqiqotlarida o'zbek tilida 55% foiz arab so'zlari borligini ta'kidlagan. ⁶³

O'zlashma so'zlarning fonetik - morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganish bir qancha olimlarning diqqatini o'ziga tortgan. Turli guruhlariga mansub tillardagi o'zlashma so'zlarning u yoki bu xususiyatlarini ochib berish jarayonida, o'zlashma so'zning o'ziga quyidagicha ta'rif berishadi : O'zlashma so'z bu chet tilidan ko'chgan leksema bo'lib o'zlashtiruvchi tilning va jamiyatda fonetik, leksik - semantik, grammatik qobig'iga bo'ysungan bo'ladi. O'zlashgan so'zlar haqidagi bu fikr boshqa olimlarning ishlarida ham ko'rsatilib o'tiladi. Inson nutqining ijtimoiy xarakteri, jamiyat taraqqiyotini ko'rsatuvchi faktlar bir til elementlarining boshqa til tomonidan o'zlashtirilishi bir tilning boshqa tilga ta'sir etishini ko'rsatadi. Bu jarayon tilning lug'at tarkibida aniq ko'zga tashlanib turadi. ⁶⁴

Avvalo, ma'lumki, arab alifbosida hamma harf ham o'zbek tilidagi mavjud tovushlarga mos kelmaydi. Jumladan, arab tildagi se, sod, sin harflarining

⁶² Zikriyayevna Xurshidaxon. Arabcha o'zlashmalar semantikasi // INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. Farg'ona, 2025.-№7(42). - 216-bet.

⁶³ Saidova S. S. Arab tilidan o'zlashgan atamalarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari // Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — 2022. — Maxsus son, 24. — 341- bet.

⁶⁴ Rahmatullayev Y. O'zbek tiliga o'zlashgan arabcha so'zlarning semantik va uslubiy xususiyatlari // Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. — 2024. — Jild 4, №12. — 410- bet.

artikulyatsiyasi turlicha bo'lib, o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'zlarda mazkur tovushlar farqlanmasada, arab tilida ularni talaffuz qilishda quyidagi holatlarni kuzatamiz.

Bulardan **س ه ز** harflarigina o'zbek tilidagi tovushlarga yaqin keladi. Qolgan sakkizta harf faqat arab tilidan o'tgan so'zlardagina uchraydi. Ular bizdagina bir xil tovushdek tuyulsa-da, aslida arab tilida talaffuzi jihatidan keskin ravishda farqlanadi. Bu harflar o'zbek va fors tillariga arab so'zlari bilan birga kirib kelganligi sababli, ular shu tillarning tovush sistemasiga bo'ysungan hamda o'zining talaffuzda farqlanuvchi xususiyatlarini yo'qotgan.

O'zbek tilida bu harflar ifoda etgan tovushlar orasida hech qanday farq ko'zga tashlanmaydi. Lekin tilimizning lug'at tarkibiga kirgan arabcha so'zlarda arablar qaysi harfni qo'llagan bo'lsalar, biz ham shu so'zni yozishda o'sha harfni ishlatamiz.⁶⁵

Arab tilidan o'zbek tiliga kirgan so'zlarda uchraydigan fonetik hodisalarning sababi arab tilida unli harflarning bo'lmasligi va o'zbek tilida hiqildoq harflarining bo'lmasligi hamda til-tish tovushlarining mavjud emasligidan kelib chiqadi. Arab tilida unlilar harakatlar - fatha, kasra, damma orqali ifodalanadi. Arabchadan o'zbek tiliga o'tgan so'zlardagi fonetik hodisalarning yana bir sababi esa 'ayn va Hamza tovushlarning o'zbek tilida -a, -e, -u, -i tarzida talaffuz qilinishidir.

Quyida arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan masdarlarning fonetik hodisalari ko'rib chiqiladi:

1) Ayn va hamza tovushlari bilan bog'liq fonetik o'zgarishlar.

a. Fathali ayn (ع) va (ء) hamza o'zbek tilida "a" unlisi bo'lib o'qiladi. Masalan: عَكْسٌ ('aks) - aks, عَمَلٌ ('amal) - amal, عَهْدٌ ('ahd) - ahd, عَيْبٌ ('ayb) - ayb, عَفْوٌ ('afw) - afv, عَرْضٌ ('ard) - arz, عَقْلٌ ('aql) - aql, أَلَمٌ ('alam) - alam, أَدَاءٌ ('adā) - ado, أَمْرٌ ('amr) - amr, عَظْمَةٌ ('azamah) - azamat, عَجَبٌ ('ajab) - ajab, عَيْشٌ ('aysh) - aysh, عَطَاءٌ ('atā) - ato, عَظْمٌ ('azm) - azm, عَدْلٌ ('adl) - adl.

Shuningdek, ba'zi holatlarda fathali ayn va hamza o'zbek tilida "o" bo'lib ham o'qiladi. Masalan: أَفَقٌ ('āfah) - ofat, أَمَانَةٌ ('amānah) - omonat, عَاقِبَةٌ ('āqibah) - oqibat.

b. Kasrali ayn va hamza "i" bo'lib o'qiladi. Masalan: عِلْمٌ ('ilm) - ilm, عِلَّةٌ ('illah) - illat, عِشْقٌ ('ishq) - ishq, إِسْلَامٌ ('islām) - islom, إِلْهَامٌ ('ilhām) - ilhom, إِصْلَاحٌ ('ishlāḥ) - isloh, إِدَارَةٌ ('idārah) - idora, إِسْتِرَاحَةٌ ('istirāḥah) - istirohat, عِلَاجٌ ('ilāj) - iloj, انْتِظَامٌ ('intizām) - intizom, إِشْتِيَاقٌ ('ishtiyyāq) - ishtiyoq, إِرَادَةٌ ('irādah) - iroda, إِقْرَارٌ ('iqrār) - iqrar, إِجَازَةٌ ('ijāzah) - ijozat, إِمْكَانٌ ('imkān) - imkon, إِثْبَاتٌ ('ithbāt) - isbot, إِدْرَاكٌ ('idrāk) - idrok, إِسْتِفَادَةٌ ('istifādah) - istifoda, إِخْلَاصٌ ('ikhhlāṣ) - ixlos, إِشَارَةٌ ('ishārah) - ishorat, إِخْتِيَارٌ ('ikhtiyār) - ixtiyor, إِسْتِثْنَاءٌ ('istisnā) - istisno, إِمَارَةٌ ('imārah) - imorat, إِفَادَةٌ ('ifādah) - ifoda, إِشْتِهَاءٌ ('ishtihā) - ishtaha, إِضْطِرَابٌ ('idṭirāb) - iztirob, إِتِّفَاقٌ ('ittifāq) - ittifoq, إِنْشَاءٌ ('inshā) - insho, إِظْهَارٌ ('izhār) - izhor, إِفْتِخَارٌ ('iftikhār) - iftixor, إِقْتِدَارٌ ('iqtidār) - iqtidor, إِلْهَامٌ ('ilhām) - ilhom, إِكْرَامٌ ('ikrām) - ikrom, إِشْتِرَاكٌ ('ishtirāk) - ishtirok.

⁶⁵ Boboqulov O. A. O'zbek tiliga xos bo'lmagan tovushlarni ifodalovchi harflar ishtirok etgan so'zlar // Universal Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. — 2022. — 1-jild, 2-son. — 100- bet.

Shuningdek, kasrali hamza o'zbek tilida "e" bo'lib ham o'qiladi. Masalan: اِعْتَبَارٌ (i'tibār) – e'tibor, اِعْتِرَاضٌ (i'tirād) – e'tiroz, اِعْتِقَادٌ (i'tiqād) – e'tiqod, اِخْتِرَامٌ (i'htirām) – ehtirom, اِخْتِيَاَجٌ (i'htiyāj) – ehtiyoj, اِحْسَانٌ (i'hsān) – ehson, اِحْتِمَالٌ (i'htimāl) – ehtimol, اِحْتِرَاسٌ (i'htirās) – ehtiros, اِحْتِيَاظٌ (i'htiyāt) – ehtiyot.

c. Dammali ayn va hamza "u" bo'lib o'qiladi. Masalan: عُدْرٌ (udhr) – uzr, عُمُوْمًا (umūman) – umuman, عُمُرٌ (umr) – umr, عُقُوْبَةٌ (uqūbah) – uqubat, عُشْرٌ (ushr) – ushr.

d. Sukunli ayn va hamza " " (tutuq belgisi) bo'lib o'qiladi. Masalan: نِعْمَةٌ (ni'mah) – ne'mat, تَغْيِيْرٌ (ta'bīr) – ta'bir, اِعْتَبَارٌ (i'tibār) – e'tibor, طَعْمٌ (ṭa'm) – ta'm, تَعْرِيفٌ (ta'rīf) – ta'rif, تَأْثِيْرٌ (ta'thīr) – ta'sir, تَأْمِيْنٌ (ta'mīn) – ta'min.

e. Ayn va hamza harflari so'z oxirida kelsa, o'zbek tilida tushib qoladi. Masalan: نِزَاْعٌ (nizā') – nizo, مَوْقِعٌ (mawqi') – mavqe, مَنَعٌ (man') – man (qilmoq), جَمْعٌ (jam') – jam, شِفَاءٌ (shifā') – shifo, دُعَاءٌ (du'ā') – duo, بَلَاءٌ (balā') – balo, بِنَاءٌ (binā') – bino.

2) Unlilar bilan bog'liq fonetik hodisalar.

a. Arab tilidagi cho'ziq unlilar aksar holatda o'zbek tilida qisqarib ketadi. Masalan: اِيْجَادٌ (ijād) – ijod, بَيَانٌ (bayān) – bayon, دَوَامٌ (dawām) – davom, نِكَاحٌ (nikāḥ) – nikoh, خِلَافٌ (khilāf) – xilof, اِمْكَانٌ (imkān) – imkon, شِكَايَةٌ (shikāyah) – shikoyat, رِعَايَةٌ (ri'āyah) – rioya, تَقْدِيْمٌ (taqdīm) – taqdim, حُكُوْمَةٌ (ḥukūmah) – hukumat, تَقْدِيْرٌ (taqdīr) – taqdir, سَكُوْنَةٌ (sukūnah) – sukunat.

b. Arab tilidagi cho'ziq unli qisqa unli fatha harakati (a)ga o'zgarib, so'ng o'zbek tilida "o" harfiga almashadi. Masalan: زِيَافَةٌ (ziyāfah) – ziyofat, زَكَاتٌ (zakāh) – zakot, حَلَالٌ (ḥalāl) – halol, سَلَامٌ (salām) – salom, اِجَازَةٌ (ijāzah) – ijozat, اِثْبَاتٌ (ithbāt) – isbot, اِخْلَاصٌ (ikhlāṣ) – ixlos.

3) Undoshlar bilan bog'liq fonetik hodisalar.

a. Arab tilidagi tashdidli undosh o'zbek tilida qisqaradi va bitta undosh holatida yoziladi. Masalan: رَدٌّ (radd) – rad, حَدٌّ (ḥadd) – had, غَمٌّ (ghamm) – g'am, حَقٌّ (ḥaqq) – haq, قَابِيْلِيَّاهُ (qābiliyyah) – qobiliyat, نِيَّةٌ (niyyah) – niyat, نَظَرِيَّةٌ (nazariyyah) – nazariya, أَهْمِيَّةٌ (a'hammiyyah) – ahamiyat, فَعَالِيَّةٌ (fa'āliyyah) – faoliyat.

Arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarning fonetik o'zgarishlari turlararo fonologik tizimlarning o'ziga xosligi, tovush tarkibidagi farqlar va talaffuz me'yorlariga moslashuv jarayoni bilan izohlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili fonemalar tizimida mavjud bo'lmagan ba'zi arabcha tovushlar o'zbek tiliga o'tishda ularning eng yaqin fonetik muqobillari bilan almashtiriladi. Natijada, o'zlashgan leksik birliklarda fonetik soddalashuv, talaffuz yumshoqligi va milliy fonologik me'yorlarga moslashish holatlari kuzatiladi.

Arab tiliga xos emfatik va hiqildoq undoshlar o'zbek tili talaffuz tizimiga singish jarayonida akustik xususiyatlarini qisman yo'qotadi va fonetik muvofiqlashuv bosqichidan o'tadi. Bu o'zgarishlar leksik birliklarning ma'no mohiyatiga ta'sir qilmasdan, ularning o'zbek tili fonetik tizimiga tabiiy integratsiyasini ta'minlaydi.⁶⁶

⁶⁶ Nuriddinova, C. S., & Baxtiyarova, F. S. (2025). Arabcha o'zlashmalar o'zbek tilida: shakl, ma'no va ishlatilish xususiyatlari. Tadqiqotlar: jahon ilmiy-metodik jurnal, 71(1), 51–55.

Shunday qilib, arabcha o'zlashmalarning fonetik o'zgarishlari o'zbek tili tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuz bergan tabiiy fonologik moslashuv natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu holat o'zbek tilining tovush tizimi imkoniyatlari, talaffuz me'yorlari va milliy til unsurlari bilan uyg'unlashuv darajasini ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan masdarlar tilimizga o'tish jarayonida fonetik moslashuvning turli bosqichlarini bosib o'tgan. Bu jarayonda arab tiliga xos bo'lgan ayrim tovushlar o'zbek tilining fonetik tizimiga mos ravishda almashgan, soddalashgan yoki talaffuzdan tushib qolgan. Shuningdek, so'z urg'usi va bo'g'in tuzilishida yuz bergan o'zgarishlar masdarlarning o'zbek tilida faol va barqaror qo'llanishiga zamin yaratgan. Mazkur fonetik o'zgarishlarni o'rganish o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, lug'at boyligining shakllanishi hamda arabiy qatlamning tilimizdagi o'rnini yanada aniqroq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zikriyayevna Xurshidaxon. Arabcha o'zlashmalar semantikasi // International scientific journal. Farg'ona, 2025.-№7(42).

2.Saidova S. S. Arab tilidan o'zlashgan atamalarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari // Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — 2022. — Maxsus son, 24.

3.Rahmatullayev Y. O'zbek tiliga o'zlashgan arabcha so'zlarning semantik va uslubiy xususiyatlari // Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. — 2024. — Jild 4, №12.

4.Boboqulov O. A. O'zbek tiliga xos bo'lmagan tovushlarni ifodalovchi harflar ishtirok etgan so'zlar // Universal Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. — 2022. — 1-jild, 2-son.

5.Nuriddinova, C. S., & Baxtiyarova, F. S. (2025). Arabcha o'zlashmalar o'zbek tilida: shakl, ma'no va ishlatilish xususiyatlari. Tadqiqotlar: jahon ilmiy-metodik jurnal, 71(1).